



THEORETICAL FOUNDATIONS AND CONCEPTUAL FEATURES OF MORTIMER ADLER'S PHILOSOPHY

Noila Suyunova

Teacher of the Department of
"Humanities" of Perfect University

Email: suyunova.n@perfectuniversity.uz

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Mortimer Adler, philosophy of education, perennialism, Paideia model, philosophical education, universal truths, great ideas, Aristotelian tradition, democratic education.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and conceptual features of the philosophy of Mortimer Adler, a prominent representative of twentieth-century American philosophy. The study focuses on Adler's interpretation of education as the central element of philosophical inquiry, his commitment to perennialist educational theory, and his emphasis on classical traditions and universal truths. The article explores the influence of Aristotelian and Thomistic philosophy on Adler's thought, as well as his critical engagement with pragmatism and progressive education. Special attention is given to Adler's Paideia Proposal, the Great Books program, and his understanding of philosophy as an intellectual foundation of a democratic society.

MORTIMER ADLER FALSAFASINING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Noila Suyunova

Perfect universiteti

"Gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: suyunova.n@perfectuniversity.uz

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mortimer Adler, ta'lim falsafasi, perrenializm, Paideya modeli, falsafiy ta'lim, universal haqiqatlar, buyuk

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada XX asr Amerika falsafasining yirik vakili Mortimer Adler falsafasining nazariy asoslari va

g'oyalar, Aristotelizm, demokratik ta'lim.

konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Adlarning ta'limni falsafiy bilishning markaziy omili sifatida talqin qilishi, uning perrenialistik ta'lim konsepsiyasi, klassik an'analarga tayangan holda universal haqiqatlarni o'rganish g'oyalari ochib beriladi. Maqolada Adler qarashlarining Aristotel va Tomas Akvinskiy falsafiy merosi bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, pragmatizm va progressiv ta'lim modellari bilan polemik munosabati yoritiladi. Adlarning "Paideya" ta'lim modeli, "Buyuk kitoblar" dasturi hamda falsafani demokratik jamiyatning asosiy intellektual tayanchi sifatida baholashi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЛОСОФИИ МОРТИМЕРА АДЛЕРА

Ноила Суюнова

Преподаватель кафедры гуманитарных наук
университета «Перфект»

Email: suyunova.n@perfectuniversity.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мортимер Адлер, философия образования, перренниализм, модель Пайдейя, философское образование, универсальные истины, великие идеи, аристотелизм, демократическое образование.

Аннотация: В данной научной статье анализируются теоретические основания и концептуальные особенности философии Мортимера Адлера — одного из ведущих представителей американской философии XX века. В исследовании раскрывается понимание Адлером образования как центрального элемента философского познания, его приверженность перренниалистской образовательной концепции, ориентированной на классические традиции и универсальные истины. Рассматривается влияние философии Аристотеля и Фомы Аквинского на взгляды Адлера, а также его критическое отношение к прагматизму и прогрессивным моделям образования. Особое внимание уделяется образовательной модели «Пайдейя», программе «Великие книги» и роли философии как интеллектуального основания демократического общества.

Kirish. XX asrning falsafiy doirasida yetuk faylasuflardan biri deb e'tirof etilgan Mortimer Adlarning asosiy falsafiy qarashlarining asosiy xususiyati uning ta'lim, falsafa va falsafaning

ta'limdagi o'rni masalalarida bildirgan yondashuvlari bilan dolzarblik kasb etib uning qarashlaridagi bu jihat zamonaviy davrda ham uning falsafiy qarashlari ahamiyatini belgilab bergan bosh omil hisoblanadi. Uning falsafiy qarashlarining markazidagi asosiy mavzu bu ta'lim hisoblanib uning barcha qarashlari shu tushuncha asosida rivojlantirilgan. Adler falsafiy qarashlarida aristotelizm va tomizm tafakkur an'analarning ta'sirini uning nazariy va amaliy faoliyatida yaqqol kuzatish mumkin.

Adlarning asosiy ilmiy izlanishlari falsafa, adaniyot, siyosat va ta'lim masalalariga qaratilgan bo'lib u bu sohalarida 50 dan ortiq kitob va ko'plab ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi. XX asrdagi Aristotel falsafasining izdoshi bo'lgan Adler ta'limning rivojlanishida o'zining liberal qarashlarini ilgari surgan holda, umrining katta qismida ta'limga oid dasturlarga boshchilik qilgan.

Uning falsafiy nazariy qarashlarining asosini perrenialistik ta'lim, klassik an'analarni targ'ib qilish va universal haqiqatlarni o'rganish masalalari tashkil etadi. Adlarning falsafiy konseptual yondashuvlarining nazariy asosini Aristotel, Tomas Akvinskiy, Kant kabi mutafakkirlarning qarashlari tashkil etadi. Adler XX asrning pragmatizm, ta'limdagi progressiv g'oyalar, analitik falsafa tanqidiy yondashuvni amalga oshirib bilan o'z qarashlarini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni tadqiq qilishda tarix falsafasi, komparativistika, mantiqiylik kabi metodlardan foydalanilgan.

Adlarning barcha qarashlari ta'lim asosida shakllantirilganligini e'tirof etish lozim. Adler ilgari surayotgan ta'lim falsafasi xususiyatiga ko'ra XX asrning ta'lim falsafasida alohida bir tendensiya bo'lgan perrenializm (abadiy qadriyatlar nazariyasi) bilan bog'liqlikda shakllangan hisoblanadi. Perrenializm oqimining vakillariga ko'ra ta'limning asosiy vazifasi insoniyat tarixida to'plangan universal haqiqatlar va o'zgarmas bilimlarni o'rgatish bo'lishi kerak. Ular ta'lim jarayoni doimiy o'garib turadigan ehtiyojlar bilangina cheklanib qolmasdan balki, inson tafakkurining eng muhim va abadiy tamoyillariga asoslanishi kerak deb hisoblaydilar.

Bu yondashuvga ko'ra:

Klassik adabiyotlar va buyuk mutafakkirlarning g'oyalari o'qitish dasturlarining asosini tashkil etishi kerak.

Tanqidiy fikrlash va falsafiy muloqot ta'lim jarayonining asosiy mazmuni ifoda etishi kerak.

Ta'lim doimiy kuzatiladigan madaniy yoki texnologik transformatsiyalarga moslashmasdan balki, universal bilimlarni o'rgatishi kerak.

“Perrenializm yondashuviga ko‘ra, ta’limning asosiy vazifasi uning insoniyat tarixida to‘plangan universal haqiqatlarni o‘rgatishdan iborat bo‘lishi lozim” [1,—p.103] Shu sababda Mortimer Adler XX asrning ta’lim falsafasining asos mohiyati bo‘lgan ta’lim dasturlarining doimiy ravishda o‘zgarib turishini tanqid ostiga oladi, ta’lim olish bosqichini falsafiy tahlil, klassik asarlarni o‘rganib chiqish va mantiqiy tafakkur yuritishni o‘rganishga asoslash zarurligi aytib o‘tadi.

Adlarning fikricha ta’lim:

- Klassik adabiyot va buyuk falsafiy asarlarni o‘rganishga asoslangan bo‘lishi lozim.
- Ta’lim asosan mantiqiy va falsafiy fikrlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.
- O‘quv dasturi har qanday davrda va makonda dolzarb bo‘lgan masalarni o‘z ichiga olishi kerak.

Shuningdek u 1982-yilda o‘z atrofida o‘ziga hammaslak bo‘lgan pedagog va ta’lim mutaxassislarini to‘plagan “Paydeya guruhi” harakatini tashkil etadi. U Paydeya guruhi harakatining asosiy tamoyillarini o‘zida aks ettirgan uchun quydagi uch muhim asarni yozadi:

- “The Paideia Proposal: An Educational Manifesto” (1982) (Paydeya taklifi: Ta’lim manifesti)
- “The Paydeya Program: An Educational Syllabus” (1984) (Paydeya dasturi: Ta’lim rejasi)
- “Paideia Problems and Possibilities” (Paydeya muammolari va imkoniyatlari)

Bu asarlarning parchasi Adler va uning hamkifkrari tomonidan ishlab chiqilgan “Paydeya” ta’lim modelininng konseptual asosini tashkil etadi.

Muhokama va natijalar. “Paydeya taklifi” chop etilganidan so‘ng ta’lim tizimida juda keng muhokamalarga sabab bo‘lib, “Amerika ta’lim tizimidagi barcha bolalar uchun muhim ta’lim dasturi sifatida e’tirof etilgan” [2]. Uning ta’limga oid konseptual qarashlari “Paideya taklifi” “The Paideia Proposal” (1982) asarida umumiy ta’limning tamoyillari va uning maqsadlarini muhokama qiladi. “How to Read a Book” (1940) (Kitoblar qanday o‘qiladi) asari esa klassik asarlarning qanday o‘qilishi va tushunilishi haqida aniq falsafiy konstruktiv yondashuvlarni beradi. U o‘zining yana bir muhim asari bo‘lgan “Buyuk suhbat” “(The Great Conversation 1952)” kitobida u G‘arb tafakkurining zamonaviy qiyofasini shakllantirgan buyuk asarlar haqida fikr yuritib, ularning ta’limdagi asosiy ahamiyatini tushuntirishga harakat qiladi. Uning nazariy qarashlari va falsafiy qarashlarining asosiy konseptual asoslari bo‘lgan bu kitoblar Adlarning eng muhim tadqiqotlari natijalari hisoblandi va uning falsafiy qarashlarining tizimini tashkil etadi.

Uning qarashlarining asosiy xususiyatini aniqlashtirish birgina u yozgan kitoblar bilan cheklanib qolmaydi. Sababi u rahbarlik qilgan dasturlar ham uning konseptual falsafiy qarashlarini amaliy jihatdan aks ettiradi.

Uning “Buyuk kitoblar” (Great Books) ta’lim dasturi yuqoridagi keltirilgan yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, G‘arb klassik asar durdonalarini o‘qish va tahlil qilish orqali o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishni maqsad qilib olgan edi.

“Adler falsafasining nazariy asoslari tahlil qilinar ekan uning qarashlari asosida yotuvchi Aristotel va Tomas Akvinskiy qarashlarini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Chunki bu faylasuflar uning qarashlarida chuqur iz qoldirgan” [3,81-b]. Bu faylasuflarning qarashlaridan ta’sirlangan Adlarning fikricha, insoniyat haqiqatlar va axloqiy prinsiplar asosida yashashi lozim hisoblandi.

“Adler Aristotelning teologik nazariyasi (har bir narsa muayyan maqsad sari harakatlanadi) va Akvinskiyning tabiiy huquq falsafasi tamoyillarini qo‘llab quvvatlab, bu nazariy qarashlarni XX asr falsafiy tafakkuri asosida rivojlantiradi” [3,90-b].

Uning qarashlari quyidagi tamoyillari quyidagilardan iborat.

Inson tabiatan bilishga intiluvchi mavjudod.

Ta’lim insonning tabiiy intellektual potensialini ochib berishga xizmat qilishi kerak.

Axloqiy qarashlar madaniy tarixiy omillardan mustaqil bo‘lib, madaniy va tarixiy o‘zgarishlardan mustaqil hisoblanadi.

Adlar mazkur qarashlarni rivojlantirib, qarashlarni zamonaviy ta’lim tizmiga joriy qilish orqali madaniyatga moslashtirishga urinib doimiy dolzarbligini isbotlashga intiladi.

Adler o‘zining qarashlarini rivojlantirib, qarashlarni o‘zining demokratik ta’lim konsepsiyasida keltiuradi. “U har bir inson, har bir inson ijtimoiy kelib chiqishidan qati’y nazar sifatli ta’lim olish huquqiga ega deb hisoblaydi” [4,22-b]. Bu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki u falsafa bilimini faqat elitalargagina tegishli emas balki butun bir jamiyatga tegishli deb hisoblaydi. Shu bois ham u quyidagilarni ilgari suradi.

Falsafani ommalashtirishni qo‘llab quvvatlaydi.

Demokratik jamiyatda har bir fuqaroga falsafiy tafakkur yuritish o‘rgatilishi kerak ekanligini ta’kidlaydi.

O‘qituvchilarning ta’limdagi asosiy roli bu faqat bilim berish emas balki talabalarni fikrlashga undovchi bo‘lishi lozim deb hisoblaydi. Uning aynan bu yondashuvi Sokratik muloqot usuliga tayangan bo‘lib, bunga ko‘ra talabaning bilimi mustaqil ravishda mustaqil mantiqiy tahlil va bahs-munozara orqali shakllantirilishi kerak hisoblandi.

Adler o‘zining ta’limga oid falsafiy qarashlarining asosini pragmatizm va progressiv ta’lim yondashuvlariga tanqidiy asosda quradi. Adler Amerika jamiyatida John Devey boshchiligida bir

qancha faylasuflar tomonidan ilgari surilgan progressiv ta'lim modelini ta'limni doimiy o'zgaruvchan va jamiyat ehtiyojlariga moslashgan tizim sifatida ko'rishni tanqid qiladi. Adler bu yondashuvni tanqid qilib, ta'limni ehtiyojlar asosida emas, balki fundamental bilim va haqiqatlarga asoslanishi kerak deb hisoblaydi.

Mortimer Adler nuqtayi nazariga ko'ra progressiv ta'lim insoniyat tafakkurining asosiy falsafiy va klassik poydevorlaridan begonalashuvga olib keladi; amaliy va texnik yo'nalishdagi ta'lim esa tafakkurning chuqur metafizik va aksiologik muammolarini e'tibordan chetda qoldiradi. Adler nazariyasiga ko'ra, chinakam ta'lim tizimi universal bilimlarni qamrab olgan bo'lishi lozim bo'lib, u inson shaxsining har tomonlama intellektual va ma'naviy kamolotiga xizmat qilishi zarur. "Adlerga ko'ra, progressiv ta'lim tarafdorlar ishlab chiqqan ta'lim modelining natijasida insonlar "bolalarcha" hattoki "go'daklarga" xos tafakkur qilishga o'rganib qolgan" [4, 25-b]. U pragmatizmga asoslangan progressiv ta'lim modeliga qarama qarshi ravishda u ta'limni fikrlashga undovchi kuch bo'lishi kerak deydi.

U o'zining demokratik ta'lim nazariyasini ishlab chiqadi.

Adlarning demokratik ta'lim nazariyasiga ko'ra, ideal ta'lim tizimi quyidagi uch muhim tamoyil asosida qurilishi kerak:

1. Demokratiya
2. Erkinlik
3. Aql va tafakkur

Adlerga ko'ra shaxs faqatgina aql orqaligina erkinlik va demokratiyani anglay oladi. Shu sababidan ham, u demokratik institutlarning shakllanishini rivojlantirish uchun ham demokratik ta'lim modellari ishlab chiqilib, rivojlantirishi kerak ekanligini ta'kidlaydi.

Adlarning bilim va falsafaning ta'limdagi o'rnini to'g'risidagi qarashlari ham konseptual asoslangan. Adler haqiqiy bilimni shubhasiz haqiqat deb hisoblaydi. U bilimni "doxa", ya'ni asosli va ishonchli fikr deb hisoblaydi. Bu fikr dalillarga tekshirish imkoniyatiga, mantiqqa asoslangan bo'lishi kerak.

Adler falsafani matematikaga qiyoslaydi, chunki matematika ham aniq bir tadqiqot yoki laboratoriya eksperimentlarini talab qilmaydi. Matematikada ham aniq bir asbob uskunasiz ma'lum bir tushunchalar shakllangani kabi falsafa ham fikrlar orqali shakllanadi. Ikki soha ham ideallar bilan ishlaydi. Ammo falsafa matematikdan farqli ravishda tajribaga asoslanadi. Chunki falsafa analitik emas balki sintetik hukmlarga tayangan holda haqiqatni aniqlaydi. Sintetik hukmlar esa bizning sezgi va tajribalarimiz orqali tekshirilishi mumkin, chunki har bir inson hayot davomida umumiy bilimlarni orttirgan hisoblanadi. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqadiki har bir inson falsafa bilan shug'ullanishi va o'z qarashlarini muhokama orqali tekshiruvdan

o'tkazishi mumkin. Falsafa odatiy sog'lom fikrga (common sense) juda yaqin, chunki uning shakllanish manbayi mantiqiy tafakkur hisoblanadi. Adler yuqoridagi tahlilardan kelib chiqqan quydagicha xulosaga keladi. "Falsafa -bu hammaning ishi. Har bir inson tabiatan falsafiy fikrlashga moyil hisoblanadi" [5, 3-b].

Adlarning fikriga ko'ra u taklif qilayotgan ta'lim modelida falsafa birinchi darajali bilim shakli hisoblanadi. Chunki falsafa haqida bilimga ega bo'lishni haqiqat haqida bilimga ega bo'lish bilan tenglashtiradi.

Adler shuni ta'kidlaydiki, falsafa turli o'lchamlarda namoyon bo'luvchi yagona bilim sohasi hisoblanadi. U falsafani to'rt muhim o'lchovga ajratgan holda tahlil qiladi. Adler ushbu to'rt o'lchovda namoyon bo'ladigan falsafani bilim va tushuncha sifatida ta'riflaydi.

- Metafizika va axloqni falsafa deb bilsak.
- G'oyalar va mavzularni biz tushuncha sifatida tushunamiz.

Shu tariqa Adler falsafani nafaqat haqiqat haqidagi bilim balki mana shu haqiqatni tushunish haqida mulohaza yuritadigan fan deb biladi.

Mortimer Adler falsafani g'oyalar haqida tafakkur qilish san'ati deb biladi ayniqsa u bu jarayonda "buyuk g'oyalarga alohida e'tibor berilishi kerak deb hisoblaydi. U Platonning "inson tafakkuri g'oyalarni mustaqil obyekt sifatida qabul qilishi mumkin" degan fiirni qo'llab quvvatlaydi [6, 825-b]. Ya'ni insonning bilish imkoniyatlari faqat fizik olamni emas balki undan yuqorida turuvchi metafizik olamni ham anglab yetishi mumkin deb hisoblaydi. Bunga erishish uchun insoniyat falsafiy g'oyalar bilan tanish bo'lishi kerak deydi. "Shuning uchun ham Adler insoniyat tafakkurini belgilab bergan 100 lab g'oyalarning ichida eng muhimi bo'lgan olti asosiy g'oyani ajratib ko'rsatadi" [7].

Adler bu g'oyalarni ikki asosiy guruhga bo'lgan holda tahlil qiladi. "Birinchi guruhdagi haqiqat, ezgulik va go'zallik g'oyalari inson tafakkuri orqali baholanadi. Ikkinchi guruh erkinlik, tenglik va adolat insoniyatning jamiyat hayotida bevosita joriy qilinishi namoyon bo'lgan holda anglanadi" [7].

Haqiqat bilimning asosi sifatida, inson tafakkurining asosiy faoliyat maqsadi uni aniqlashtirish topish hisoblanadi. Haqiqat mutlaq va nisbiy holatda bo'lishiga qaramasdan har doim mantiqiy dalillarni talab qiladi. Ezgulik, inson hayoti va jamiyatning asosiy axloqiy tamoyillarini belgilab beruvchi falsafiy kategoriya. Inson qanday yashash kerak, nima ezgu, nima yomon degan degan savollar falsafaning asosiy muammolaridan bo'lib barcha uchun birdek barobar falsafiy muammo hisoblanadi. Go'zallik esa inson qalbida estetik zavqni uyg'otuvchi asosiy tamoyil. Butun bir borliqda aks etgan go'zallik inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Adlarning 6 muhim g'oyalarining ikkinchi guruhi bevosita jamiyatning amaliy faoliyati bilan bog'liq. Erkinlik har bir insoning asosiy huquqi bo'lib, u haqiqatni izlash imkoniyati bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Tenglik o'z jamiyat hayotida muhim rol o'ynovchi tamoyil sifatida insonlarning har qanday kelib chiqishidan qat'iy nazar ularning munosabatlaridagi teng huquqlilikni anglatadi. Adolat insoniyat tarixidagi eng ko'p muhokama qilinadigan falsafiy tushuncha bo'lib, har qanday jamiyat, davlat boshqaruvi va huquqiy jamiyatni ta'minlash uchun asosiy qadriyatli mezon hisoblanadi.

“Adler bu g'oyalarni tahlilini davom etirar ekan bu olti g'oyadan faqat go'zallikdan tashqari boshqa 5 g'oya AQShning asosiy hujjatlari bo'lgan Mustaqillik deklaratsiyasi, konstitutsiyasi va Gettysburg nutqida aks etgan deb ta'kidlaydi” [8].

Adler ta'lim jarayonida shu olti g'oyani joriy qilish orqali insonda falsafiy tafakkurni bosqichma bosqich shakllantirish mumkin deb hisoblaydi. Chunki bu g'oyalar nafaqat falsafa uchun balkin har bir insonning hayoti va jamiyatdagi o'rni uchun ham muhim dolzarb hisoblanadi.

Mortimer Adler falsafani haqiqatga yetkazuvchi bilim sifatida baholar ekan, haqiqatni obyektiv va subyektiv jihatlariga bo'lib tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra haqiqat nisbiy bo'lishi barobarida mutlaq ham bo'lishi mumkin biroq uni qanday baholashimiz ya'ni subyektiv imkoniyatlarimizdan kelib chiqadigan haqiqat tushunchasi farqli bo'lishi mumkin.

Adlarning ta'kidlashicha, inson obyektiv haqiqatlarni inkor qilmasligi aksincha baholovchi bo'lgan subyektiv tomonni ehtiyotkorlik bilan tekshirishi kerak. “U bu jarayonda “yumshoq skeptizim” (mild skepticism) deb ataydigan yondashuvni ilgari suradi” [9, 81-b].

Adler obyektiv haqiqat masalasiga to'xtalar ekan, obyektiv haqiqatlar o'zgarmasligi mumkin deydi. Biroq uning so'zlariga ko'ra: “obyektiv haqiqatni bizning qabul qilishimiz doimo o'zgarib turishi mumkin. Haqiqat o'zi darajalarga ega bo'lmaydi biroq u subyektiv baholash omili bilan haqiqat deb hisoblaganimizga nisbatan ishonch turlicha bo'lishi mumkin, shundan kelib chiqib inson uni “ko'proq yoki kamroq haqiqat” deb ta'riflaydi [7, 45-b].

Uning bu fikridan shunday xulosa kelib chiqadi, yani insonlar haqiqatlarni turli darajada qabul qilishadi, lekin bu haqiqatning obyektiv tabiatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Misol uchun ilmiy haqiqatlar ilmiy rivojlanish bilan birga ba'zida o'zgarib turadi bu o'zgarish oldin haqiqat degan narsa obyektiv jihatdan haqiqat bo'lmagan degan narsa emas, balki, aksincha bizning baholash mezonlarimiz o'zgarganligi anglatadi.

Adlarning bu yondashuvi haqiqatni mutlaq deb bilish bilan birga, inson tafakkurining cheklangan agnostik xususiyatlarini ochib berib inson bilishidagi ehtimoliy xatoliklarni tan olishi kerak deb hisoblaydi. Shunday qilib, inson obyektiv yani universal haqiqatlarning mavjudligini

etirof etgan holatda u subyektiv baholash jarayonida metodologik doimiy takomillashuvga alohida e'tibor berishi kerak.

Adlerga ko'ra, haqiqatni izlash bilimga yangi haqiqatlarni qo'shish, eskilarini yaxshiroqlari bilan almashtirish, xatolarini tuzatish va noto'g'ri umumlashtirishlarni rad etishdan iborat bo'lishi lozim hisoblandi. "U haqiqat bilan yaxshilik tushunchasidan farqlaydi amma inson haqiqatni xohlashi bilan haqiqatga yaxshilik ma'nosi yuklanadi deydi" [7, 58-b].

"Adler yaxshilikni tabiiy va orttirilgan istaklarimizni ajratish orqali aniqlash mumkin deb hisoblaydi. Haqiqiy yaxshilik tabiiy ehtiyojlarni qondiradigan narsadir" [7, 67-b].

U erkinlikni uch shaklga bo'ladi: tabiiy erkinlik (irodaviy), axloqiy erkinlik (ozodlik) va sharoitga bog'liq erkinlik.

Adler (Ten Philosophical Mistakes) "Falsafiy o'n xato" zamonaviy falsafadagi 10 xatoni sanab o'tadi.

1	Ong haqidagi xato	Ongni noto'g'ri talqin qilish.
2	Inson aqli haqidagi xato	Aqlni faqat sezgir idrok bilan bog'lash.
3	G'oyalarning ma'no ekanligini tushunmaslik	G'oyalar faqat ong mahsuli emas, balki ma'nolar sifatida ko'rilishi kerak.
4	Falsafaning ilm-fan bilan teng ahamiyatini tan olmaslik	Falsafaning jamiyat va bilimdagi o'rnini inkor etish.
5	Yaxshilik va yomonlikni subyektiv qilish	Axloqiy qadriyatlarni shaxsiy qarashlarga bog'liq deb hisoblash.
6	Baxt tushunchasini noto'g'ri talqin qilish	Haqiqiy baxt va yolg'on baxtni ajrata olmaslik.
7	Erkin tanlov va determinizm o'rtasidagi chalkashlik	Inson erkinligini cheklovchi noto'g'ri tushunchalar.
8	Inson tabiatini inkor etish	Insonning o'ziga xos tabiiy xususiyatlarini rad etish.
9	Jamiyat shakllarining tabiiy va konvetsional ekanligini tushunmaslik	Inson jamiyatidagi asosiy munosabatlarni noto'g'ri talqin qilish.
10	Reduksionizm xatosi	murakkab tushunchalarni haddan tashqari soddalashtirish.

Adlerga ko'ra falsafaning rivojlanishi uchun ushbu ehtimoliy xatolarni bartaraf etib, falsafani to'g'ri yo'lga solish uchun ushbu xatolarni bartaraf etish lozim deb hisoblaydi.

Xulosa va takliflar. Adler falsafasi asosan haqiqat, yaxshilik va go'zallik kabi fundamental tushunchalarga asoslanib ta'lim masalasi bilan birga rivojlantiriladi. Adlarning falsafasi obyektiv haqiqat, axloqiy, realism va inson tafakkurining mantiqiy asoslariga tayangan holda shakllangan bo'lib o'z nazariy asoslarini qadimgi antik davr falsafasi va zamonaviy XX asr falsafasi tanqididan oladi. Uning qarashlarining eng muhim nazariy jihatini uning falsafani amaliyotga joriy qilishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Xususan u ta'lim falsafasiga oid qarashlarini rivojlantirib yangi Paydeya ta'lim modeli va harakatiga asos soldi. Uning falsafaga nisbatan o'ziga xos yondashuvni ilgari surishi va ta'limni falsafa asosida qurishga bo'lgan ta'lim islohotlari uning XXI asrda ham dolzarb o'rganilishi tadqiq etilishi kerak bo'lgan mutafakkirga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. John Dewey, "President Hutchins' Proposals to Remake Higher Education," The Social Frontier, 1937, 3, 103-104.
2. Соціально-філософські проблеми розвитку людини і суспільств. Серія:ISSN 2410-3381 (PRINT). ISSN 2520-6842 (ONLINE) № 2 (9) 2018.
3. Book Review Essay The False Promise of the Paideia: A Critical Review of The Paideia Proposal by Mortimer J. Adler Reviewed by: Nel Noddings School of Education Stanford University Stanford, California 94305. Journal of Thought, Spring 1984, Vol. 19, No. 1 (Spring 1984), pp. 81-91.
4. Mortimer J. Adler, The Paideia Proposal. New York, NY: Macmillan Publishing Co., Inc., 1982. 22p.
5. Adler, M. J. (1988). Six great Ideas, New York, NY: Macmillan Publishing Company. pg.3.
6. Atıf İçin / Please Cite As: Bayrak, B. (2024). Daimici Mortimer Adler'de demokrasi ve eğitim. Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi, 13(3), 824-841. doi:10.33206/mjss.1368395.
7. Adler, M. J. (1988). Six great Ideas, New York, NY: Macmillan Publishing Company.
8. Noddings N. (2016). Eğitim Felsefesi. (R. Çelik, Çev.). Ankara: Nobel Yayıncılık.
9. Noddings N. (1984). The False Promise of the Paideia: A Critical Review of "The Paideia Proposal" Journal of Thought, 19(1), pp. 81-91.